

NOMINATIV BIRLIKLARNING KONNOTATIV ASPEKTI

Navruzova Nigina Xamidovna
Ingliz tilshunosligi kafedراسi o'qituvchisi,
Buxoro davlat universiteti

Annotsiya: *Mazkur maqolada tilshunoslikning semasiologik yo'nalishiga xos denotativ va konnotativ ma'nolar, ularda ifodalangan pragmatik xususiyatlar nominativ birliklar misolida tadqiq qilingan. Ishda ot, sifat, fe'l so'z turkumlariga xos konnotativ va pragmatik ma'nolar badiiy asar va so'zlashuv nutqidan olingan misollar asosida tahlil qilingan.*

Kalit so'zlar: *denotativ, konnotativ, funksional, uzual ma'no, okkazional ma'no, semema, ingerent, adgerent.*

Annotation: *In this article, the denotative and connotative meanings specific to the semasiological direction of linguistics, as well as the pragmatic features expressed in them, are studied on the example of nominative units. Connotative and pragmatic meanings of nouns, adjectives, and verbs are analyzed based on examples from works of art and colloquial speech.*

Keywords: *denotative, connotative, functional, usual meaning, occasional meaning, sememe, inherent, adherent*

So'zning o'z ma'nosi va shakli bo'ladi. So'z paydo bo'lishidayoq o'z tovush qiyofasiga va ma'lum bir ma'nosiga ega bo'lishi qonuniy holdir. Ammo shuni aytish kerakki, so'z hosil bo'lishida ham hamma vaqt birlamchi ma'nodir. Ma'no ongda paydo bo'lgach, uni ifodalash zaruriyati bilan shakl tanlanadi. So'z shakli nutq tovushi yoki nutq tovushlari kompleksidan iborat. Hech vaqt nutq tovushlari kompleksini tanlab, so'ng unga ma'no izlanmaydi. So'zlarning ifodalaydigan ma'nolari eng umumiy belgi xususiyatiga ko'ra har xil bo'ladi. Ular quyidagichadir:

So'z ma'nolari tushuncha ifodalaydi. Bunda kishi ongida aks etgan obyektiv olamdagi narsa, hodisa, harakat, holat va belgi haqidagi tushuncha so'zda o'z ifodasini topadi [1]. Bu mustaqil ma'noli so'z turkumlariga xos. Masalan, ot turkumidagi so'z narsa va hodisa haqidagi tushunchani ifoda etadi. Fe'llar harakat yoki holat haqidagi tushunchani bildiradi. Sifat va ravish turkumiga oid ma'nolar asosida belgi va shu kabi tushunchalar yotadi. Ya'ni bunday so'zlar ma'nosi hamma vaqt tushuncha ifodalaydi. So'zlarning bunday ma'nolari leksik ma'no deb qaraladi. Leksik ma'noli so'zlar differensial – semantik metodning tekshirish obyekti sifatida leksema deb nomlanadi. Leksemalar ot, sifat, son, olmosh, fe'l, ravish turkumiga mansub deb qaraladi. Shu metodga ko'ra leksik ma'nolar semema deb atalgan [2].

Gap bo'laklari yoki gaplarni o'zaro bog'lash uchun, shuningdek, bir so'z boshqa bir so'zni boshqarishi uchun xizmat qiladigan, ya'ni so'z yoki gapga qo'shimcha ifoda beruvchi turlicha ma'nolar ham bor. Bular grammatik ma'no deb qaraladi [3]. Ular ma'lum so'zning leksik ma'nosiga ilova qilingan semantik komponent (sema) sifatida namoyon bo'ladi.

Har qanday so'z o'z shakli va o'z ma'nosiga ega bo'ladi. Avval kishilik ongida tushuncha – ma'no paydo bo'lib, keyin unga shakl tanlanadi va so'z hosil etiladi [4]. Ayrim so'zlarda faqat grammatik, ayrim so'zlarda faqat so'zlovchining o'z nutqiga bo'lgan munosabatini bildiruvchi ma'no kuzatiladi. Leksik ma'no tarkibida esa grammatik ma'no ham, emotsional – ekspressiv ma'no ham bo'lishi mumkin.

So'zda hosila ma'noning yuzaga kelishi leksik ma'no denotativning obyektiv borliqdagi narsa, voqelik, harakat, holat va belgi kabilar bilan munosabatiga ko'ra sodir bo'ladi [5]. U til doirasida ham, nutq doirasida ham kuzatiladi. Shuning uchun ham uni G.Pauldan boshlab uzual ma'no, okkazional ma'nolarga ajratib o'rganiladi. Uzual va okkazional ma'nolar o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ular nutqdan tashqarida ifodalanishi bilan bog'liq.

So'zning uzual ma'nosi hamma vaqt umumlashgan xarakterda bo'ladi. U nutq uchun tanlanganda realizatori vositasida ifoda doirasi torayadi. Ya'ni ancha aniqroq ifoda beradigan bo'ladi. Masalan, **so'z** so'zi "va'da" uzual ma'nosi bilan **yigit** so'zi birikmasida qo'llanganda, va'da, albatta, bajariladigan darajadagi va'da ifodasiga yetgan [6]. So'zning okkazional ma'nosi esa nutqdagi muayyan so'zga taqalar ekan, umumlashgan tushunchaning doirasini toraytirish, ma'noni aniqlashtirish maqsad qilib olingan bo'ladi. Masalan, Lermontovni tashlamadim hech gapini eslash mumkin. Bu gapdagi Lermontov so'zi asar so'zi ma'nosi doirasida toraytirilgan. Bu okkazional ma'noga xos xususiyatdir. Okkazional ma'no mohiyati bilan nutq hodisasi bo'lib, tilga tegishli emas, tilning mulki ham bo'lib kelmaydi.

Leksik ma'no (semema) bo'linmas birlikdan iborat emas, balki tarkibiy uzvga egadir [7]. Leksik ma'noning mana shu elementi R.Yunusov qayd etishicha, semadir. D.Sh.Xo'jayevaning qayd etishicha ham, leksik ma'no ko'p semali bo'ladi. T.Shippan esa leksik ma'no belgilar yig'indisidan iborat tarkibga ega bo'ladi, deb ko'rsatadi. Haqiqatda ham leksik ma'no o'z tarkibiga ega. Semema tarkibidagi sema bir xil emas. Sema mohiyatiga ko'ra uch xil bo'ladi.

- 1) atash semasi (denotativ sema);
- 2) ifoda semasi (konnotativ sema);
- 3) vazifa semasi (funksional sema);

Atash semasi borliq bilan, ifoda semasi so'zlovchining munosabati bilan, vazifa semasi esa leksemaning lison va nutqdagi roli bilan belgilanadi [8]. Atash semasi leksemaning borliqdagi harakat – holatlilik, narsa – predmetlik, miqdorlik, belgilik xususiyatini atovchi, nomlovchi semadir. Ular borliq, tushuncha va sememani bir – biriga bog'lab turadi.

Bir xil yoki o'xshash tushunchani ifodalaganligi sababli leksemada ko'p holda atash semasi bir xil bo'ladi [9]. Masalan, "yaxshi", "tuzuk", "durust", "ajoyib" yoki "yuz", "chehra", "oraz", "turq", "aft", "bet" ma'nodoshlik qatoridagi barcha leksemalarning atash semasi bir xil. "Yaxshi", "tuzuk", "durust", "ajoyib" leksemalarining atash semalari quyidagilar: 1) "belgi"; 2) "barqaror belgi"; 3) "sifat belgi"; 4) "shaxsiy baho"; 5) "ijobiy"; 6) "ichki – tashqi". Shu bilan birgalikda, bu leksemalarda farqlanuvchi atash semalari ham mavjud bo'lib, ular "tuzuk" leksemasida "me'yordan bir pog'ona pastlik", "yaxshi" leksemasida "me'yorchilik", "ajoyib" leksemasida "meyordan bir pag'ona yuqorilik" semalaridir [10]. "Yuz", "chehra", "oraz", "turq", "aft", "bet" leksemalarida esa; 1) "inson bosh old tomoniga xos"; 2) "peshanadan iyakkacha bo'lgan qism" semasi atash semasi. Ingliz tilida talkative, conversational, chatty, nosy so'zlarini oladigan bo'lsak, bularning bari "sergap (full of trivial conversation)" ma'nosini beradi. Bu ularning atash semasi.

Aytilganidek, sememani semaga ajratishda, semaning tabiatini belgilashda leksema paradigma o'z korrelyanti bilan tekshirilishi lozim [11]. Aks holda leksemaning relevant (muhim) va irrelevant (muhim bo'lmagan) semasini farqlashning imkoni bo'lmaydi. Masalan, ingliz tilidagi "brother" leksemasining sememasi "qarindosh", "qon – qarindosh", "bevosita" atash semalariga ega. O'zbek tilidagi "aka" leksemasida esa bu sema bilan birgalikda "mendan katta" relevant semasi ham bor. Chunki "aka" leksemasi shu semasi bilan "uka" leksemasiga qarama – qarshi turadi. "Brother" leksemasiga shu sema bilan qarshilanuvchi birlik yo'q, shu boisdan unda noaniq tabiatli "mendan katta/mendan kichik" semasi mavjud bo'lib, u noaniq bo'lganligi sababli irrelevantdir [12].

Ko'rinadiki, leksema sememasi tarkibida atash semalari eng muhim, belgilovchi hisoblanadi va borliq parchasiga muvofiq keladi.

Ifoda semasi deganda semema tarkibida turli qo'shimcha ma'no (uslubiy bo'yoq, shaxsiy munosabat, qo'llanish doirasi va davri)ni atovchi sema tushuniladi [13]. Atash semasi kabi ifoda semasi ham leksema sememasini farqlash quvvatiga ega bo'lgan sema bo'lib, ular ham leksik paradigmada aniqlanadi. Masalan, "yuz" va "bet" leksemasining semasi o'zaro qiyosda ochiladi: - "yuz" – inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi. - "bet" – inson boshi old tomonining peshonadan iyakkacha bo'lgan qismining so'zlashuv uslubiga xos ifodasi.

Bu semalardagi "uslubiy betaraf" ("yuz" leksemasidagi) va "so'zlashuv uslubiga xos" ("bet" leksemasidagi) semalari uslubiy bo'yoqni ko'rsatuvchi ifoda semadir. [14] "Turq" leksemasidagi "salbiy", "jamol" leksemasidagi "ijobiy" semasi shaxsiy munosabatni ko'rsatuvchi ifoda semasi bo'lsa, "aeroplan" leksemasidagi "arxaik", "kompyuter" leksemasidagi "neologizm", "xarseb" leksemasidagi "shevaga xos" semasi qo'llanish davri va doirasini ko'rsatuvchi ifoda semasi. Ingliz tilida quyidagi misolni tahlil qilsak:

House is made of brick and stone,

Home is made of love alone.

"House" va "home" so'zlari tarjimada bir xilda "uy" ma'nosini anglatadi. Garchi "house" va "home" so'zlari denotativ ma'no jihatdan bir xil ma'no anglatsa-da, ingliz tilida "home –uy" so'zi o'zining konnotativ ma'nolariga ega. "House" so'zi "uy" ma'nosida "turar – joy, bino" ma'nosini anglatadi. "Home" so'zi esa "uy" ma'nosi bilan birgalikda, undagi qulaylik, oila a'zolari va ular o'rtasidagi iliq munosabatlarni ham o'z ichiga oladi [15].

Ifoda semasi ham muhim yoki muhim bo'lmagan turga ajratiladi. Shu boisdan farqlovchi, muhim ifoda semalari ingerent konnotativ sema va muhim bo'lmagan ifoda semalari adgerent konnotativ sema deyiladi.

Vazifa semasi leksemaning birikuv – biriktiruv (valentlik) imkoniyatini, lisoniy qolipda qanday o'rinni egallashini bildiruvchi semadir [16]. Masalan, "kitob", "daftar", "maktab", "bormoq" kabi leksemalarning vazifasida keladi. "Qat'iy", "keskin", "moviy", "qizg'ish" leksemalarning vazifa semasi tor va shu boisdan aniq. Ular ayrim so'zlar bilan birika oladi, xolos.

Ingliz tilida "tea" (choy) leksemasini to make, to drink, to grow leksemalari bilan ishlatish mumkin. Biroq, "tea" leksemasi nutqda to eat fe'li bilan birika olmaydi, bunga tea va to eat so'zlarining leksik ma'nolaridagi semalar tarkibi yo'l qo'ymaydi.

Semema semalari o'zaro dialektik munosabatda va teskari mutanosiblikka ega. Sememani uchburchakka qiyoslasak, har bir turga mansub sema uning bir burchagini tashkil qiladi. Uchburchakda bir burchakning kattalashishi boshqalarining kichrayishi hisobiga yuz berganligi kabi sememadagi bir semaning kuchayishi boshqa semaning kuchsizlanishi evaziga sodir bo'ladi [17]. Masalan, mustaqil leksemada atash semasi kuchaysa, ifoda semasi kuchsizlashadi. Ifoda semasi kuchaysa, atash semasi kuchsizlanadi. Masalan, ko'chma ma'noli leksemada atash semasi kuchsizlanib, ifoda semasi kuchaygan. Leksema nutqda voqelanganda ham uning atash semasi o'z o'rnini ma'lum darajada ifoda semasi voqelanishiga bo'shatib beradi. Masalan, "bo'ri" leksemasi odamga nisbatan qo'llanganda undagi "hayvon", "itsimonlar oilasiga mansub", "yovvoyi" atash semalari kuchsizlanib, "yirtqich", "vahshiy", "qonxo'r" ifoda semalari kuchaygan holda yuzaga chiqadi.

Mustaqil leksema yordamchi so'z vazifasida qo'llanganda undagi atash va ifoda semasi kuchsizlanib, vazifa semasi esa kuchayib voqelanadi [18].

Leksemani semaga ajratish tilshunoslikda komponent yoki uzviylik tahlil yoxud semik tahlil deb yuritiladi. Sememani semaga ajratish moddani atomga ajratishga, boshqacha aytganda, sema kimyoviy elementga o'xshaydi. Borliqda kimyoviy element turi sanoqli bo'lganligi va ularning har xil kombinatsiyasidan behad ko'p modda hosil qilinganligi kabi, cheklangan miqdordagi semaning turli xil kombinatsiyasidan ham ko'plab semema vujudga keladi.

Xulosa qilib aytganda, konnotativ ma'no barcha leksemalarining semalar uchun majburiy emas, mavjud leksemalarning semalar tarkibida doimo ham konnotativ ma'no bo'lishi shart emas. Shu sababli konnotatsiya leksemaning semantik tuzilishida emas, balki pragmatik tuzilishida mavjud bo'lib, so'zlovchi va tinglovchining berilgan axborotga bo'lgan munosabatiga bog'liq holda anglashiladi. Shuningdek, so'zning pragmatik vazifasi lingvistik munosabatlar bilan ekstralingvistik munosabatlarning o'zaro aloqasini tiklaydi. Konnotatsiya so'zning pragmatik vazifasini yuzaga chiqaruvchi asoslardan biridir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Izomovich, R. Z. (2022). On the Basis of Information-Discursive Analysis. *Indonesian Journal of Innovation Studies*, 18.
2. Izomovich, R. Z. (2023). Expression of the Factors of Mutual Equilibrium Between Redundancy and Economy in the Formation of the Text. *Miasto Przyszłości*, 32, 125-127.
3. Khamidovna, N. N. (2023). STRUCTURE OF THE CONNOTATION COMPONENTS IN THE ADJECTIVES. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(2), 180-185.
4. Askarovich, H. A. (2023). THE EXPRESSION OF THE INTENSITY OF WORDS AT LANGUAGE LEVELS. *Finland International Scientific Journal of Education, Social Science & Humanities*, 11(1), 638-642. <http://farspublishers.org/index.php/ijessh/article/view/339>
5. Navruzova Nigina Xamidovna, (2021). APPROACHES TO LEXICAL CONNOTATIONS, *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 1721-1726. <https://saarj.com/wp-content/uploads/paper/ACADEMICIA/2021/FULLPDF/ACADEMICIA-OCTOBER2021/10.258,%20Navruzova%20Nigina%20Xamidovna.pdf>
6. Haydarov Anvar Askarovich. (2022). SOME COMMENTS ON THE STYLISTIC REPETITION. *JournalNX - A Multidisciplinary Peer Reviewed Journal*, 8(1), 87-91. <https://doi.org/10.17605/OSF.IO/V2EYW>
7. Akramov, I. (2021). APHORISM AS AN OBJECT OF LINGUISTIC RESEARCH. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 1(1). извлечено от http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/2874
8. Djumayeva, N. "THE MAGIC ITEM PRESENTED BY FAIRIES IN ENGLISH FAIRY TALES." *E-Conference Globe*. 2021. <https://papers.econferenceglobe.com/index.php/ecg/article/view/97>
9. Navruzova, N. (2022). ВЫРАЖЕНИЕ КОННОТАТИВНОГО ЗНАЧЕНИЯ В ЛИТЕРАТУРНЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 24(24). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/8251
10. Navruzova, N. (2022). ВЫРАЖЕНИЕ ЭМОЦИОНАЛЬНО-ЭКСПРЕССИВНОСТИ В ЕДИНИЦАХ РЕЧИ. *ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz)*, 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/5752

INTEGRATION OF PRAGMALINGUISTICS, FUNCTIONAL TRANSLATION STUDIES AND LANGUAGE TEACHING PROCESSES

11. Akramov I.I., "The special signs, properties and characteristics of the aphorisms"- ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 2021
12. Navruzova, N., & Haydarov, A. (2022). КОННОТАТИВНЫЕ ЗНАЧЕНИЯ, СВЯЗАННЫЕ С ЗВУКОВЫМИ ИЗМЕНЕНИЯМИ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4462
13. Navruzova, N. (2022). ПОДХОДЫ К ЛЕКСИЧЕСКИМ КОННОТАЦИЯМ. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.Uz), 8(8). http://journal.buxdu.uz/index.php/journals_buxdu/article/view/4356
14. Askarovich, H. A. . (2022). So'z Ma'nolari Intensivligi. Integration of Pragmalinguistics, Functional Translation Studies and Language Teaching Processes, 13–15. Retrieved from <http://www.conferenceseries.info/index.php/online/article/view/29>.
15. Djalilova, Z. B. (2020). Flora in Edmund Spenser's poetry. ISJ Theoretical & Applied Science, 04 (84), 371-375
16. Mirzo Makhmudovich Tursunov. (2022). ANALYSIS OF SOME ENGLISH IDIOMS CONTAINING POPULAR PROPER NAMES. European Journal of Interdisciplinary Research and Development, 5, 62–67. <http://ejird.journalspark.org/index.php/ejird/article/view/98>
17. O'rinbekovna, U. M. (2022). INGLIZ TILIDA FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI. Journal of new century innovations, 15(1), 73-80.
18. Djumayeva, N. D. "SPECIFIC FEATURES OF MAGIC MUSICAL INSTRUMENTS IN ENGLISH AND UZBEK FOLKLORE." Теория и практика современной науки 4 (2018): 21-24. <https://elibrary.ru/item.asp?id=35192565>